

Guliston davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi,
Psixologiya fanlari doktori, dosent,
Sharapova Saboxat Djabbarovna taqrizi
ostida

Sayyora Jonzoqova Anvarovna
GulDU o‘qituvchisi
e-mail: sjonzoqova88@gmail.com
+998994704668
Ravshanov Husan Abdiqul o‘g‘li
GulDU o‘qituvchisi
e-mail: husanravshanov23@gmail.com

GLOBALLASHUV JARAYONIDA MINTAQAVIY XAVFLAR VA INSONIYANING XAVFSIZLIK MUAMMOLARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada globallashuv jarayonida mintaqaviy xavfsizlik masalalari, insoniyaning xavfsizlik muammolari mohiyati, xavfsizlik kategoriyalari, xavfsizlik subyektlari va obyekti, ularning hayotiy muhim manfaatlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Globallashuv jarayoni, mintaqaviy xavfsilik, milliy xavfsizlik, davlat xavfsizligi, tahdidlar, terrorizm, strategiya.

РЕГИОНАЛЬНЫЕ УГРОЗЫ И ПРОБЛЕМЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В статье анализируются вопросы региональной безопасности в условиях глобализации, сущность проблем безопасности человека, категории безопасности, субъекты и объекты безопасности, их жизненно важные интересы.

Ключевые слова: Процесс глобализации, региональная опасность, национальная безопасность, государственная безопасность, угрозы, терроризм, стратегия.

REGIONAL DANGERS AND HUMAN SECURITY PROBLEMS IN THE GLOBALIZATION PROCESS

Abstract: This article analyzes the issues of regional security in the process of globalization, the essence of human security problems, security categories, security subjects and objects, and their vital interests.

Key words: Globalization process, regional danger, national security, state security, threats, terrorism, strategy.

XXI asr bo’sag’asida Markaziy Osiyoning xalqaro hayotning mustaqil subyekti sifatida qayta tiklanishi, shubhasiz, olamshumul, o’zida muxim jarayonlami ham ifodaluvchi, ham aks ettiruvchi xodisa bo’ldi. Bu, Yevrosiyodagi geosiyosiy vaziyatni tubdan o’zgarishiga olib kelgan, jahon miqyosida avj olayotgan chuqur, tektonik siljishlar xosilasi bo’ldi. Markaziy Osiyoning jahon siyosati va iqtisodiyoti mustaqil subyekti sifatida tiklanishi, o’z navbatida, dunyo miqyosida ro’y berayotgan jarayonlarga kuchli ta’sir ko’rsatuvchi m n h im omilga aylandi. Yuzlab yillar davomida unutilgan, e’tibordan chetda qolgan o’lka bo’lib kelgan Markaziy Osiyo jahon hamjiyati tomonidan qayta kashf etildi. Dunyo bu minataqanining xalqaro iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, sivilizatsiyalararo aloqalarga qo’shilishiga katta umid bog’ladi. Ayni vaqtida, boshidanoq,

Markaziy Osiyo dunyo miqyosidagi barqarorlikka tahdid soluvchi ichki va tashqi xavf- xatarlar manbaiga aylanishi mumkinligi ham ayon bo'lib qoldi. [2]

Chunonchi dunyoning turli nuqtalarida mintaqaviy mojarolar va kichik va katta urushlarlarning toboro kuchayib borishi eng avvalo davlatimizning osoyishtaligi, farovonligini yanada mustahkam saqlab qolish va rivojlantirish barchamizning majburiyatimiz va burchimiz hisoblanadi. Shuningdek xalqimizning huquq va xavfsizligini himoya qilish, gumanitar-huquqiy, madaniy aloqalarni ta'minlash, obyektiv axborot tarqatish masalalari mamlakatimiz siyosatining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda muhtaram yurtboshimiz **Sh. M. Mirziyoyevning** quyidagi so'zları naqadar muhim va dolzarb ekanligi yuzaga chiqadi: "Tub negizida "O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak" degan g'oya mujassam bo'lgan O'zbekistonning tinchlik va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yo'llini izchil davom etttiramiz. Hozirgi o'ta notinch va murakkab zamonda bebaho boyligimiz bo'lgan tinch va osoyishta hayotni ko'z qorachig'idek saqlash, jamiyatimizda millatlar dinlararo hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bizning eng muhim va ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi" [1]

Globallashuv jarayonida xavfsizlik masalalari va muammolarini anglash va chuqr tahlil etish, mafkuraviy imunitet hosil qilish uchun eng avvalo "havfsizlik" tushunchasi ma'no-mazmunini anglashimiz, har tomonlama, chuqr tahlil etishimiz darkor.

Xavfsizlik tushunchasining falsafiy-ijtimoiy va siyosiy-huquqiy mazmunini har tomonlama tahlil etish xavf va tahdid, obyekt va subyekt, xavfsizlik sohasi va tizimi kabi tushunchalarni anglashda asos bo'lib xizmat qiladi. "Xavfsizlik" atamasi so'zning o'z-o'zidan anglashilganda "biror-bir xavfning mavjud emasligi", "xavfdan himoyalanganlik" yoki "tinch holat" ma'nosi anglatadi. Xavfsizlik tushunchasini yanada kengroq taxlil etadigan bo'lsak, uning mazmunini va mohiyatini shakllantiradigan so'zlarni ko'rib chiqish lozim. Xavfsizlik so'zining umumiy ma'nosida xavf, tahdid tushunchalari birinchi o'ringa chiqadi. "Xavf — inson, biror ijtimoiy guruh, jamiyat, davlat va jahon hamjamiatiga zarar yetkazishi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarning buzilishi yoki ijtimoiy-siyosiy inqirozining yuzaga kelishiga, rivojlanish yo'lining berkilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy (yoki real) voqeа, hodisa yoki jarayonlardir. Xavf - bu biror-bir zarar yetkazish, ya'ni xavfsizlik obyektining strukturasi yoki boshqa xususiyatlarini o'zgartirish orqali uning bardoshlilik va raqobatbardoshlilik salohiyatini quyi darajaga tushirish ehtimolidir"[3]

Yuqorida tushunchada xavf ma'lum bir subyektlar va tuzilmalarning moddiy va ma'naviy tomonlama manfaatlari jiddiy putur yetkazadi, bu subyekt va tuzilmalar xavfsizlikning subyektiv kategoriyalarini tashkil etadi. Xavfsizlik asosida bu subyektlarning muhim hayotiy manfaatlari yotadi.

Globallashuv jarayonida mintaqaviy xavflar qatorasida internet-axborot oqimi eng global muammolardan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yil ichida Internet dunyosida inqiloblar yuz berdi, bu qog'oz ishlarini kamaytirishga, ularni raqamlashtirishga, pochta xabarlarini jo'natishga, har xil ma'lumotlarni o'z formatida saqlashga va ortiqcha qog'ozbozlikni oldini olishga olib keldi. Internet olamidagi yutuqlar bilan birga tashkilotlar va hukumatlar ham raqamlashtirildi. Ular ma'lumotlarni internet yoki tarmoq orqali saqlaydi, ular ustida ishlaydi, ularni yuboradi va qabul qiladi. Hulosa qilib aytganda hujjat ishlari ancha yengillashdi va mukammalashdi. [4]

Shuning bilan bir qatorda bu yutuqlar internetda jinoyatchilarining faoliyatini kuchayishiga olib keldi, bu onlayn ma'lumot va ma'lumotlarga toboro jiddiy tahdid solib bormoqda. Ular ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanishlari, ularga zarar yetkazishi yoki o'z manfaatlari uchun

foydalanishi mumkin. Shu sababli, Internetdagi barcha ma'lumotlarni ushbu turdag'i tahdidlardan himoya qilish juda muhimdir.

Sir emas, internetdan foydalanuvchilar soni kundan-kunga ortmoqda, yer yuzining deyarli istalgan nuqtasida internetga ulanish, undan foydalanish imkoniyatiga mavjud, dunyoning 200 dan ortiq mamlakati internet bilan bog'langan. Jahon internet tarmogining rivojlanishi, axborotlashuv jarayonining rivojlanishi kompyuter jinoyatchiligi va kompyuter terrorizmi kabi yangi jinoyatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Yangi va o'rganilmagan jinoiy soha sifatida insoniyat uchun o'ta xavfli hisoblangan kiberterrorizm muammosini hal etish alohida e'tibor talab qiladi. Internet tarmog'idagi ochiq manbalar orqali biologik, kimyoviy hattoki yadro qurollarini tayyorlash texnologiyalarini o'rgangan holda amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlarini amalga oshirilayotganligi barchamiga ayon. Saytlarni noqonuniy yo'llar bilan buzish orqali kiberterrorchilar turli maxfiy ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Kiberterrorizm aslida axborot texnologiyalari ichki faoliyatiga noqonuniy aralashish, kompyuterda mavjud dasturlar yoki ma'lumotlarni maqsadli ravishda yo'q qilish, zarar keltirish, davlat organlarining muhim qismlari faoliyatini izdan chiqarish bilan birga insonlar hayotiga xavf solish, moddiy zarar keltirish yoki ommaviy qo'rqitish, harbiy nizolar kabi turli zararli oqibatlarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatdir. Kiberterrorizmning shiddat bilan o'sib borishining yana bir sababi, u qurol-yarog' yordamida amalga oshiriladigan terrorchilik harakatidan arzonga tushadi, jangovar harakatlar, portlashlar, xunrezliklar bo'lmaydi. Buzg'unchi harakatlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Internet tarmog'i o'zining tezkorligi, tejamkorligi va ochiqligi, nazoratning sustligi yoki umuman yo'qligi, dunyo bo'ylab tarqalgan foydalanuvchilarining mavjudligi, axborotlarning tez va arzon yo'l bilan to'liqligicha tarqatilishi, hamfikr guruhlarning tashkil etish mumkinligi, aloqalarning anonim ekani, asl manbani aniqlash imkonsizligi, strategik obyektlar, harbiy tashkilotlar kompyuterlariga noqonuniy ulanish imkonining mavjudligi, tarmoqlarning yashovchanligi bilan terrorchi tashkilotlarni o'ziga jalb qilmoqda.

Kiberxavfsizlik va tarmoq xavfsizligining farqi shundaki, kiberxavfsizlik xavfsizlikning keng ko'lagini qamrab oladi, bu tarmoq qurilmalari va serverlari ma'lumotlarini har qanday kiberhujumlardan himoya qiladigan jarayondir, shu bilan ma'lumotlar noto'g'ri ishlatilishining oldini olish mumkin. Xavfsizlik - bu kiber xavfsizlikning bo'linmasi, bu muhim ma'lumotlar, hisob ma'lumotlari, identifikatorlar va parollarni noto'g'ri ishlatilishidan yoki buzilishidan himoya qilishdir.

Ushbu ma'lumotlarni himoya qilish uchun axborot xavfsizligi, kiber xavfsizlik va tarmoq qimmatli qog'ozlari ishlab chiqilgan. Kiber xavfsizlik - bu tarmoq qurilmalari va serverlaridagi ma'lumotlarni raqamli kiber tahdidlardan himoya qilish harakati. Tarmoq xavfsizligi - bu xakerlar tomonidan noto'g'ri foydalanish yoki ruxsatsiz kirishdan ma'lumot va muhim ma'lumotlarni himoya qilish. Axborot xavfsizligining bir qismi kiberxavfsizlikdir. Kiberxavfsizlik - bu serverlar va tarmoq qurilmalaridagi ma'lumotlarni hujumlardan, kiber xakerlarning zararlariga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish jarayoni. Ma'lumotlar turli xil kiberhujumlarning oldini olish uchun texnik va himoya dizaynlarini nazarda tutadi.

Kiber xavfsizlikni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun kiber xavfsizlik bo'yicha mutaxassislar mavjud. Ularning ishi ma'lumotlarni aniqlash, tiklash va kiber tahdidlardan himoya qilishdir. Shuningdek, ular potentsial kiber tahdidlar xavfini minimallashtirish uchun tarmoq orqali trafikni kuzatib boradilar. Ular tarmoqdagi ma'lumotlarning yaxlitligiga zarar etkazmagan deb qarashadi.

Kiber xavfsizlikning bir qismi tarmoq xavfsizligi. Tarmoq xavfsizligi - bu tarmoq qurilmalari va serverlaridagi ma'lumotlarni xakerlik, suiiste'mol qilish yoki ruxsatsiz kirishdan himoya qilishni osonlashtiruvchi harakat. Bu tashkilot yoki hukumatning IT-infratuzilmasini xakerlar tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha tahdidlardan himoya qiladi.

Yuqoridagi xatboshilardan ko'rinish turibdiki, ham kiber xavfsizlik, ham tarmoq xavfsizligi ruxsatsiz kirish yoki noto'g'ri foydalanishdan himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kiberxavfsizlik va tarmoq xavfsizligini to'g'ri amalga oshirish orqali ularning ma'lumotlari va hisob ma'lumotlarini himoya qilish mumkin.

Globallashuv jarayonida xavfsizlik masalalaridan yana biri inson, uning xavfsizligi, hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa tabiiy huquqlari bo'lib, ularni ta'minlash Konstitutsiya bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi JK 135-moddasi "Odam savdosi" deb nomlanib, mazkur moddada ushbu toifadagi jinoyatning sodir etish usuli, turlari va bu jinoyatlar uchun tayinlanadigan jazolar qayd etilgan. Odam savdosi bu- odamni olish-sotish, yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishda ifodalanadi. Mazkur harakatlarning sodir etilishi jinoiy oqibat yuz bergen-bermaganidan qat'iy nazar jinoyat tugallangan deb topiladi va jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Odam savdosi, ya'ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishda ifodalanigan qilmishlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik yuzaga keladi. Odam savdosi jinoyati millat, davlat va chegara tanlamaydi. Ushbu jinoyat bir davlatning hududida boshlanib, uning oqibatlari boshqa davlatlarning hududida yuz berishi mumkin. Oldi-sotdi tariqasidagi odam savdosi odamning bir shaxs tomonidan boshqasiga pul, boshqa moddiy qimmatliklar (mulk), mulkiy xarakterdagi xizmatlar, mulkiy yoki pul shaklidagi qarzdan voz kechish va h.k.lar sifatidagi haq evaziga berilishi to'g'risida yozma yoki og'zaki bitim tuzilishini nazarda tutadi. Bunday ko'rinishdagi odam savdosida odam qanday maqsadlarda sotib olinganligi (sotilganligi) huquqiy ahamiyat kasb etmaydi.

Hulosa qilib shuni aytish munkunki globallashuv jarayonida har qanday tashqi ta'sir milliy va davlat xavfsizligiga jiddiy ta'sir qilishi, uning ichki birligiga salbiy ta'sir qilishi, bir millat bo'lib shakillanish jarayoniga jiddiy putur yetkazadi. Buning oldini olish uchun Mustaqil O'zbekistonimizning ichki xavfsizlini shuningdek, muhofaza qiluvchi organlarining hamkorligi, strategik, ilmiy, taktik amaliyoti asosida xavfsizlik ta'minlansa, mintaqaviy darajada esa, avvalo hududiy-chegaraviy qo'shni davlatlar va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik va tinchlik bitimlarini yanada shakillantirish muhim hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizlik tizimi juda murakkab hodisa hisoblanadi. Chunki markaziy osiyo davlatlari xavfsizligi qo'shni davlatlar xavfsizligi demakdir. Zanjir nazariyasi mohiyatidan kelib chiqilsa, mintaqqa davlatlari hududlarida yechilishi mumkin bo'lgan ichki faktorlar yig'ilib chegaralaridan tashqariga chiqishi natijasida ikkinchi toifa ya'nini mintaqaviy faktorni ya'nini o'zaro ishonchni mustahkamlash orqali va chegara masalalarini hal etilishi orqali ta'minlanishini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шавкат Мирзиёев ЯНГИ УЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ - Тошкент, "O'zbekiston нашриёти, 2021. 464 бет [1]

2. Mirziyoyev Sh. M. “Milliy taraqqiyot yo’limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” Toshkent. 2017. [2]
3. Bobokulov I. I., Umarov X. P. Xavfsizlik asoslari. O’quv qo’llanmasi. - T.: JIDU, 2010. - B.179.
4. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI TO’G’RISIDA”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://www.lex.uz/docs/-3610935>
5. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va olujanob xalqimiz bilan birga quramiz”. “O’zbekiston” NMIU, -2017. -B.490.
6. Toshbekova M. X. "Problem of Solving Ideological Threats in the Context Globalization" 5 th International emi entrepreneurship social sciences congress june 29-30. 2020/ Gostivar-N-Macedonia. 2020 www.emissc.org [3-4]
- 7.Bobokulov I. I. Xavfsizlik. Lug'at. - T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2011. - B.147.